



**AQLI AVTOTURARGOH TIZIMINI LOYIHALASH ORQALI TALABALARING TEXNIK IJODKORLIGINI
RIVOJLANTIRISH**

Tuxtasinov Maqsadjon Murodjon o'g'li

Qo'qon universiteti o'qituvchisi, FDU tayanch doktoranti

tuxtasinov.maqsadjon@gmail.com

+998911481727

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 63

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1176>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

turizm, raqamli texnologiyalar, aqli avtoturargoh, sensorlar, Arduino, texnik ijodkorlik, innovatsiya.

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida transport infratuzilmasida bir qator muammolar kuzatiladi. Mana shunday muammolardan biri sifatida avtomobillar turar joyi muammoosini keltirish mumkin. Ushbu muammo albattra malakat turizm salohiyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur maqolada bu kabi muammolarga yechim sifatida zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida aqli avtoturargoh tizimlarini loyihalash masalasi ko'rib chiqilgan va amaliy tajribalar natijasi keltirib o'tilgan. Shu kabi muammomi vaziyatlarga yechim topish orqali talabalarning texnik ijodkorliklарини rivojlantrish yo'llari tadqiq etilgan.

Kirish qismi. Bugungi kunda hatto dunyoning yetakchi davlatlarida ham transport infratuzilmasida ko'plab muammolar kuzatiladi. Mazkur muammolar albattra mamlakatning turizm salohiyatiga ham bevosita o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Mana shunday muammolardan biri sifatida esa avtomobillar uchun turar joy topish masalasini ham keltirish mumkin. Bu kabi muammolar ayniqsa mamlakat bo'ylab yengil avtomobilda sayohatga chiqqan turistlarda ko'p uchraydi. O'tkazilgan tadqiqotlar va kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, yurtimizga tashrif buyurgan sayohatchilar ham aksariyat hollarda transport vositalaridan foydalanishdagi muammolar va avtomobillar turar joylarining doimiy bantligini ta'kidlashadi. Shu bois, avtomobillar uchun aqli turar joy tizimini zamonaviy raqamli yechimlar asosida loyihalash masalasi bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi[1]. Bunday tizimlar real vaqt rejimida ishlovchi datchiklar, avtomatlashtirilgan kirish-chiqish tizimlari, xavfsizlikni ta'minlovchi qurilmalar, shuningdek elektrömobil lar uchun quvvat beruvchi stansiyalar bilan jihozlanishi maqsadga muvofiq sanaladi. Bunday infratuzilmalar nafaqat texnik, balki shaharsozlik, ekologiya va transport boshqaruvi bilan ham uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Mazkur maqolada aynan shu yo'nالishda – ya'ni zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida avtomobillar uchun moslashuvchan va xavfsiz aqli turar joy tizimini loyihalash prinsiplari, xorijiy amaliyotdagি namunalari va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari batafsil yoritiladi.

So'nggi yillarda transport vositalari uchun aqli avtoturargoh tizimlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda. Xususan, Ghosh va Gupta (2020) o'z tadqiqotlarda aqli avtomobillar uchun raqamli infratuzilmaning muhim jihatlariga e'tibor qaratib, bunday tizimlar doimiy axborot almashinuvni, xavfsizlik va mustahkamlikka asoslanishi lozimligini ta'kidlaydilar[2]. Shu bilan birga, ular transport oqimini optimallashtirishda aqli avtoturargohlar muhim vosita bo'lishini qayd etishgan.

Eyropaning ko'plab davlatlarida, jumladan, Germaniya va Niderlandiyada olib borilgan loyihalarda IoT asosidagi avtoturargohlar tajribasi sinovdan o'tkazilgan. Bunda mashina turargoh joyini mustaqil aniqlab, egallanish holatini real vaqtida markaziy tizimga uzatishi mumkin bo'lgan tizimlar ishlab chiqilgan[3]. Bunday yondashuvular nafaqat foydalanuvchiga qulaylik yaratadi, balki eng avvalo shahardagi tirbandlik va yoqilg'i sarfini ham kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, AQShda joylashgan MIT texnologiya instituti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar avtomatik boshqaruv tizimlarining samarali ishlashi uchun avtoturargohlar energetik mustaqillikka ega

bo'lishi, quvvatlantirish stansiyalari bilan jihozlanishi va sun'iy intellekt asosida boshqarilishi kerakligini asoslab beradi[4]. Bu esa avtomobilarni texnik xizmatdan o'tkazishda inson ishtiokin kamaytirish imkonini beradi.


O'zbekiston sharoitida esa bu boradagi izlanishlar hali endigina bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. 2022-yilgi Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotida raqamli transport infratuzilmasi, xususan, "aqli shahar" komponenti sifatida avtoturargohlarni avtomatlashtirish zarurligi qayd etilgan[5]. Biroq amalda bu borada keng ko'lamli loyihalar hali bosqichma-bosqich amalgal oshirilmoqda.

Metodologiya. Yuqorida manbalardan kelib chiqib aytil mumkinki, aqli avtomobillar turar joyini loyihalash – bu faqat texnik masala emas, balki shahar infratuzilmasi, turizm salohiyati, ekologiya, energetika va axborot texnologiyalarini uzviy bog'lovchi murakkab tizimdir. Mazkur maqola ushu yondashuvni chuqurroq o'rganish va O'zbekiston sharoitiga mos innovatsion modelni taklif qilishga qaratilgan.

Texnologiyalar tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan bugungi dunyoda avtomatlashtirish hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Avtomatlashtirishning keng tarqagan amaliy usullaridan biri sifatida quyida avtomobillar turar joyi namunasi keltirib o'tilgan. Bunday tizimlar nafaqat turistlar uchun qulaylik yaratadi, balki cheklangan avtoturargoh maydonlarini samarali boshqarish va ekologik samaradorlikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Arduino platasi, infraqizil nurli sensor va ledlar asosidagi avtomatik avtoturargoh tizimi – to'xtash joylarini yanada qulay va samarali boshqarishga qaratilgan innovatsion yechimlardan biridir[6]. Ushbu ijodiy loyiha Arduino platformasining imkoniyatlaridan foydalangan holda avtoturargohlarning ishlash jarayonini avtomatlashtiradi. Arduino – bu moslashuvchan va ochiq manbali elektronika platformsidir[7].

Tizim sensorlar va aktuatorlar kombinatsiyasi orqali mashinalarning mavjudligini aniqlaydi, bo'sh joylarni aniqlaydi hamda led dioddalar orqali real vaqt rejimida bo'sh joylar mavjud yoki yo'qlig haqida ma'lumotlarini taqdim etadi[8]. Bu esa mavjud parkovka joylaridan foydalanishni optimallashtirish bilan birga, parkovka jarayonining tashkil etilganligi va qulayligini ham oshiradi.

Tizimning asosiy maqsadi bo'sh parkovka joylarini avtomatik aniqlash, real vaqt rejimida ma'lumot berish va mashinalarni to'g'ri yo'naltirish orqali avtoturargoh tizimini samarali boshqarishni ta'minlashni tashkil etadi. Tizim uchun yuqorida sanab o'tilgan qurilma va sensorlar kerak bo'ladi. Ushbu qurilmalarini 1-rasmagi kabi ullanadi.



1-rasm. Aqlii avtoturargoh tizimi sxemasi

Tizimning ishlash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- Infraqizil nurli sensorlar mashina bor yoki yo'qligini aniqlaydi;
- Arduino sensor ma'lumotlarini tahlil qiladi;
- Natijalar LEDlar tablosida ko'rsatiladi (masalan: "Joy 1 – Band(qizil yonadi), Joy 2 – Bo'sh(qizil o'chadi)");
- Haydovchi tablodagi bo'sh joyni ko'radi va mashinasini bo'sh joyga haydaydi.

Tizimning samarali ishlashi albatta dastur kodiga ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Tizimdagi qurilmalarning aniq va xatoliklarsiz ishlashi uchun albatta yuqoridaq ketma-ketlik dastur kodida ham jarayonni boshqarishi zarur. Quyida ushbu tizim uchun ishlab chiqilgan dastur kodi keltirilgan:

```
#include <Servo.h> //shlagbaum uchun servomotor kutubxonasi
const int parkingSensors[] = {2, 3, 4, 5}; // Parkovkadagi joylarni aniqlovchi IR sensorlar
const int ledPins[] = {6, 7, 8, 9}; // 4 ta LED chiroq (joylar uchun)
// Shlagbaum uchun IR sensorlar va LED'lar
const int entrySensor = 11; // Kirish IR sensori (faqat joy bo'sh bo'lsa ishlaydi)
const int exitSensor = 12; // Chiqish IR sensori (har doim ishlaydi)
const int entryLed = 10; // Kirish LED (shlagbaum ochilganda yonadi)
const int exitLed = A0; // Chiqish LED (shlagbaum ochilganda yonadi)
// Shlagbaum servo motor ulanishi
const int barrierServoPin = 13;
Servo barrierServo;
void setup() {
    Serial.begin(9600); // monitor portga xabar yuborish
    // IR sensor va LED'larni sozlash
    for (int i = 0; i < 4; i++) {
        pinMode(parkingSensors[i], INPUT);
        pinMode(ledPins[i], OUTPUT);
        digitalWrite(ledPins[i], LOW); // LED'lar dastlab o'chirilgan bo'lsin
    }
    // Kirish va chiqish IR sensorlarini sozlash
    pinMode(entrySensor, INPUT);
    pinMode(exitSensor, INPUT);
    // Qo'shimcha LED'lar
    pinMode(entryLed, OUTPUT);
    pinMode(exitLed, OUTPUT);
    digitalWrite(entryLed, LOW);
    digitalWrite(exitLed, LOW);
}
```

```
// Servo motorni sozlash
barrierServo.attach(barrierServoPin);
barrierServo.write(0); // Shlagbaum pastda bo'ladi
}
void loop() {
    bool allSpotsFull = true; // Barcha joylar bandmi?
    bool carAtEntry = digitalRead(entrySensor) == LOW; // Kirish sensori mashinani ko'rayaptimi?
    bool carAtExit = digitalRead(exitSensor) == LOW; // Chiqish sensori mashinani ko'rayaptimi?
    Serial.println("Parkovka monitoring...");
    // Har bir parkovka joyini tekshiramiz va natijani chiqaramiz
    for (int i = 0; i < 4; i++) {
        int sensorValue = digitalRead(parkingSensors[i]); // Sensor qiymati
        Serial.print("Sensor ");
        Serial.print(i);
        Serial.print(": ");
        Serial.println(sensorValue);
        if (sensorValue == LOW) {
            digitalWrite(ledPins[i], HIGH); // LED yonadi
            Serial.print("LED ");
            Serial.print(i);
            Serial.println(" YONDI!");
        } else {
            digitalWrite(ledPins[i], LOW); // LED o'chadi
            Serial.print("LED ");
            Serial.print(i);
            Serial.println(" O'CHDI!");
            allSpotsFull = false;
        }
    }
    // Kirish qoidasi: faqat joy bo'sh bo'lsa ochiladi
    if (!allSpotsFull && carAtEntry) {
        Serial.println("Joy bor! Kirish uchun shlagbaum ko'tarilmoqda...");
        digitalWrite(entryLed, HIGH); // Kirish LED yoqildi
        barrierServo.write(90); // Shlagbaum ochiladi
        delay(3000); // 3 soniya ochiq turadi
        Serial.println("Shlagbaum yopilmoqda...");
        barrierServo.write(0); // Shlagbaum pastga tushadi
        digitalWrite(entryLed, LOW); // Kirish LED o'chadi
    }
    // Joylar to'lsa, kirish bloklanadi
    if (allSpotsFull && carAtEntry) {
```

```

Serial.println("Parkovka to'la! Kirish uchun shlagbaum
ochilmaydi.");
}
// Chiqish qoidasi: har doim ochiladi
if (carAtExit) {
Serial.println("Mashina chiqyapti, shlagbaum ko'tarildi...");
digitalWrite(exitLed, HIGH); // Chiqish LED yoqiladi
barrierServo.write(90); // Shlagbaum ochiladi
delay(5000); // 5 soniya ushlab turiladi
Serial.println("Shlagbaum yopildi.");
barrierServo.write(0); // Shlagbaum pastga tushadi
digitalWrite(exitLed, LOW); // Chiqish LED o'chadi
}
Serial.println("-----");
delay(500);
}

```

Ushbu dastur kodi sinovdan o'tkazilganda undagi kamchiliklar aniqlandi va bartaraf etildi. Undagi o'zgaruvchilar va vaqtlar namuna sifatida keltirilgan. amaliy loyihami amalga oshirish jarayonida bu o'zgaruvchilarni o'zgartirish va almashtirish mumkin bo'ladi.

Natijalar qismi. Agar turargohda bo'sh joylar kamida bitta mavjud bo'sa ham, shlagbaum oldida yashil led yonib turadi, aksincha joylar barchasi to'lgan holatda esa shlagbaum oldida qizil led yonadi va joy qolmaganligi haqida ogohlantiradi. Shlagbaum kirish va chiqish oldidagi sensorlardan kelgan signal yordamida ochiladi va avtomatik tarzda yopiladi. Agarda qizil chiroq yongan, ya'ni joy qolmagan taqdirda shlagbaum kirish qismida avtomobilarga yo'lni ochmaydi. Shu orqali haydovchilarining vaqtini tejaladi. Shuningdek, ularning turargohga kirib joy topa olmasdan kayfiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olinadi.

Mazkur tizim talabalar tomonidan amaliy sinovlardan muvaffaqiyatlari o'tkazildi. Sensorlar mashina borligini 10 sm ichida ishonchli aniqlay oldi. Ledlar yordamida haydovchilarga aniq ko'rsatmalar berildi. Ushbu avtomatik tizim kichik avtoturargohlar uchun arzon, ishonchli va foydalanuvchiga qulay yechim bo'lishi mumkin ekanligi amalda o'z isbotini topdi.

Muxokama qismi. Ushbu loyiha davomida yaratilgan avtomatik avtoturargoh tizimi Arduino platformasining imkoniyatlarini amaliyotda

Foydalaniyanadabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida "Aqli shahar" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 18.01.2019 yildagi 48-son qarori
- Gupta, Nirbhay & Mishra, Somnath & Porwal, Prateek & Bhattacharyya, Budhaditya. (2020). Smart Vehicular Parking System. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE). 8. 10.35940/ijrte.F9383.038620.
- Jayopal, Cynthia & Priya, C. & Gopinath, P.A.. (2019). IoT based smart parking management system. International Journal of Recent Technology and Engineering. 7. 374-379.
- Ullah, Irfan & Zheng, Jian-Feng & Jamal, Arshad & Zahid Khattak, Muhammad & Almoshaqeh, Meshal & Safdar, Muhammad. (2023). Electric vehicles charging infrastructure planning: a review. International Journal of Green Energy. 21. 10.1080/15435075.2023.2259975.
- Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2022). O'zbekiston Respublikasida "aqli shahar" konsepsiyasining joriy etilishi bo'yicha yillik tahlili hisoboti. Toshkent: IRV matbaa. Retrieved from <https://innovation.gov.uz/oz/opendata/post-1098>

qo'llash nuqtai nazaridan samarali yechim bo'ldi. Tizimning sodda, modulli va arzon qismlardan tashkil topganligi uni o'quvchilarga, talabalar va texnik ijod bilan shug'ullanuvchi yoshlar uchun mos va o'rganishga qulay qiladi.

Infracizil nurli sensorlar yordamida transport vositalarining mavjudligini aniqlash orqali tizim real vaqt rejimida ishlaydi va haydovchiga foydalanishga tayyor bo'sh joylar haqida LEDlar orqali xabar berish beradi. Bu yondashuv, bir tomonдан, bo'sh joylardan maksimal darajada samarali foydalanishni ta'minlasa, boshqa tomonдан, tashrif buyuruvchilarning vaqtini tejashta va avtoturargohdagi tartibni saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tizimda ledlar o'rniiga I2C interfeysi orqali ishlovchi displeyning tanlanishi modulning qulayligini va minimal pinlar soni bilan ko'p ma'lumot ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Bu, o'z navbatida, Arduino platasi uchun boshqa qo'shimcha qurilmalar ulash imkonini ham olib beradi.

Amaliy tajriba jarayonida ayrim cheklovlari ham kuzatildi. Jumladan, ochiq havoda ishlaganda kuchli quyosh nurlari yoki yomg'irli ob-havo sharoitlari sensorlar ishonchhliliga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun qo'shimcha himoya korpuslari, signalni kuchaytiruvchi algoritmlar yoki optik sensorlar bilan kombinatsiya qilish taklif etiladi.

Muhokama natijalariga tayangan holda aytish mumkinki, ushbu avtomatik avtoturargoh loyihasi kichik va o'rta hajmdagi avtoparkovkalarda qo'llash uchun amaliy, iqtisodiy jihatdan maqbul va texnologik jihatdan rivojlantirishga ochiq bo'lgan yechim hisoblanadi. Kelajakda ushbu tizimga mobil ilova, bulutli texnologiyalar asosidagi monitoring tizimi, NFC yoki RFID asosida avtomashinalarni tanib olish tizimi kabi qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, avtomatik avtoturargoh tizimlari transport va turizm sohasida katta ahamiyatga ega. Arduino va sensorlar asosida yaratilgan ushbu loyiha texnik jihatdan oddiy, ammo funksional jihatdan samarali tizimdir. Bunday yechimlar shaharlardagi tirbandliklarni kamaytirish, haydovchilar va shahar mehmonlarining vaqtini tejasha va avtoturargohlarni samarali boshqarish imkonini beradi. Loyiha texnik ijodkorlik va innovations fikrlashni rivojlantirish uchun ham ajoyib amaliy misol bo'la oladi.

6. Maqsadjon Murodjon O'G'Lii Tuxtasinov, Abdumannon Kodirjonovich Jumakulov, & Xatamjon Mo'Ydinovich Xoldarov (2022). TALBALARNING MUSIQA VA SAN'ATGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEKNIK VA ELEKTRON VOSITALARDAN FOYDALANISH. Oriental Art and Culture, 3 (2), 354-359.

7. Tuxtasinov Maqsadjon Murodjon o'g'li, & Karimov Boxodir Xoshimovich. (2024). ZAMONAVIY TEKNIK VOSITALAR YORDAMIDA YOSHLARDA TEKNIK IJODKORLIK VA INNOVATSION FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. University Research Base, 553–556. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/390>

8. Б.Х.Каримов, Б., & М.М.Тухтасинов, М. (2024). ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(3), 96–101. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/75098>